

**MAKTABLARDA YOZUVNI NUTQ FAOLIYATI TURI SIFATIDA O'RGANISH  
QOBILYATINI OSHIRISHNING ASOSIY SHAKL, USUL HAMDA VOSITALARI**

**Doniyor Pulatov Sayfulla o'g'li.**

*NamDU lingvistika ingliz tili 2-bosqich magistranti*

*Tel:+998942795243*

*Mail: doniyorpulsev641@gmail.com*

Ko'pchilik yozma nutqqa og'zaki nutq deb qaraydilar. Yozuvda ishlatiladigan harflarimiz nutq tovushlariga to'g'ri keladi. Matndagi tinish belgilar nutq a'zosi bo'lishiga xizmat qiladi: ya'ni nuqta, vergul, og'zaki nutq intanatsion pauzalariga mos keladi. Harflar esa yozuvning moddiy shakli, elementi ekanligini bildiradi. Yozma nutqning og'zaki nutqdan farqli jihatli:

- yozayotgan muallif vaqtini xisobga olganda bemalol o'yash imkoniyatiga ega bo'ladi.

- u matn uchun mos fikrni tanlay oladi.

- yozma nutq og'zaki nutqdan ko'ra bo'yoqdor va ravon bo'ladi.

Adabiy tilda uning har ikkala shakli uchun xos bo'lgan betaraf va uslublararo ifoda vositalari bilan bir qatorda adabiy tilning bir shakli og'zaki yoki yozma shakli uchun xosdir til unsurlari, vositalari ham bo'ladi.

Yozma nutqning og'zaki nutqdan yana bir farqi o'zaki gaplarda ko'pincha sodda gaplarni, to'liqsiz gaplarni ishlatish ko'p uchraydi. Masalan, -Sobir keldimi? - Ha keldi. Bu yerda gap mazmuni kimga qaratilganligi aniq bo'lgani uchun tinglovchi qisqa gapirgan.

Yozma nutqning sintaktik qurilishi o'zining murakkabligi bilan ajratilib turadi. Unda ergash gapli qo'shma gaplardan, kirish so'z va iboralardan, murakkab gaplardan, ajratilgan va uyushiq bo'laklardan keng foydalaniladi.

Masalan, Sobir peshayvonda endigma suzilgan va hali sovub ulgurmagan palovning dimog'iga urilib ishtahasini ochayozganligini tuyub tursada, bugun ham ro'za tutishi kerakligini, akasiga bergen va'dasini amalga oshirishi shartligini o'yladi. Bu gapdan ko'rinish turibdiki yozuvchi bu kabi bo'yoqdor sermazmun yozma nutq shakllantirish uchun anchayin ter to'kkani bilinib turibdi. Shuningdek, og'zaki nutq shakli maruza va suhabatlarda, yozma shakli esa fanda, texnika va asarlarda, rasmiy ish hujatlarda, nashriyot va matbuot sohalarida foydalaniladi. Garchi shunay bo'lsada, ular bir biriga o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi. Ma'ruzalar, chiqishlar o'z xususiyatlari bilan yozma adabiy tilga yaqin turadi. Shuningdek, yozma adabiy tilda ayniqsa, badiiy asarlarda so'zlashuv nutqiga xos so'z va iboralar, sheva so'zlar ham qo'llaniladi. Bunda kitobxonga badiiy estetik ruh bag'ishlanadi.

Maktablarda yozuvni nutq faoliyati turi sifatida o'rganish qobilyatini oshirishning asosiy shakl, usul hamda vositalari haqida gapirishdan oldin o'quvchilarning yozma

nutqdagi kamchiliklarini izchil o'rganish, tahlil qilish va ularga yechim topish kerak. Quyida o'quvchilarning yozma nutqida ko'p uchraydigan kamchiliklar bilan tanishib chiqasiz.

Og'zaki nutq atrofdagilar bilan bevosita aloqa qilishda ishlatsa, yozma nutq boshqa vaziyatda boshqa bir joyda, davrda yashagan kishilar bilan muloqatda bo'lish, ularning fikrini anglash vositasidir. Yozma nutq fikrlarimizda ixtiyoriy ifodalab berishning eng qulay vositasidir. Yozma nutqni o'qish hamda yozish jarayonlari tashkil etadi. Yozma nutqni tushinish uchun maxsus tartibdagita'lini olmoq, ya'ni savodli bo'lmoq zarur. Yozma nutq og'zaki nutq asosida shakillanadi.

Yozma nutq mexanizmlari murakkabligi sababli uni shakillantirib borishda turli hil qiyinchiliklar kuzatilib turadi. Masalan, logopediyada yozma nutqdagi nuqsonlar disgrafiya dileksiya aleksiya atamalari bilan yuritiladi. Yozma nutq kamchiliklari haqida korreksion pedagogika izlanuvchilari ham qimmatli nazariyalarni yaratganlar. Kusmaul (1877) va Berkan (1881) o'ilmiy asarlarida o'qish va yozishdagi asosiy kamchiliklar mustaqil nutq nuqsonlari ekanligini ko'rsatib berdilar. Bunga qadar yozma nutqdagi kamchiliklar aqliy belgilardan biri sifatida hisoblanar edi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab 1 guruh olimlar o'qish va yozishdagi kamchiliklar ko'rib idrok etishning yuzaki bo'lganidan kelib chiqadi degan qarorga kelishadi. Ular yozma nutqdagi kamchiliklarni legoseniya (o'qishning sustligi) va grafosteniya (yozishning sustligi) atamalari bilan nomlashni taklif qildilar. 1907 yili rus olimi K.N.Monaxov yozma nutqdagi nuqsonlarni sezuvchanlikka oid afatik buzilish sensor harakteri deb hisobladi. Klinisist-nevropotolog R.A.Tkachev, S.S.Mnuxinlar yozma nutqdagi kamchiliklar bo'g'inalarni esda saqlay olmaslik, tovushlarni noto'g'ri talaffuz etish oqibatida sodir bo'ladigan nutqiy hodisa deb, ularni aleksiya, agrafiya nomlari bilan atashni taklif etdi.

Shunday qilib, yozma nutqdagi kamchiliklar juda murakkab nutq nuqsonlaridan biri hisoblanadi. Bu kamchiliklarni olidini olish maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilishi darkor. Bundan bolaning og'zaki nutqini o'stirish, hotirasi, analiz va sintez qilish faoliyatini, nutqini tahlil qilish, grammatik komponentini rivojlantirish, og'zaki nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etish, nozik qo'l harakatlarini rivojlantirish o'ta muhim hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Logopediya (Pod red. L.S.Volkovoy. M., Prosvesheniye, 1989.)
2. Filicheva T. B., Cheveleva N.A., Chirkina G.V. Osnovi logopediya. M., Prosvesheniye 1989.
3. Levina R.YE. Osnovi teorii i praktiki logopedii. M., 1968.
4. Lalayeva R.I. Narusheniye protsessa ovladeniya chteniyem u detey. M., Prosvesheniye, 2000 .

5. Sadovnikova I.N. Narusheniye pismennoy rechi u mladshix shkolnikov. M., Prosvesheniye, 2001.
6. Rasstroystva rechi u detey i podrostkov (Pod red. S.S.Lyapidevskogo. M., 1969.)
7. Yefimenkova L.N., Sadovnikova I.N. Isravleniye i preduprejdeniye disgrafii u detey. M., 2000.
8. Kashe G.A. Podgotovka k shkole detey s nedostatkami rechi. M., 1985.
9. Pravdina O. V. Logopediya. M., 1969.